

**Tijorat banklarida jismoniy shaxslar bilan
valyuta ayirboshlash operatsiyalarini amalga
oshirish tartibi to'g'risidagi
NIZOM**

Muqaddima

1-bob. Umumiy qoidalar

2-bob. Konversion bo'limning faoliyatini tashkil qilish

3-bob. Konversion bo'limda chet el valyutasini
sotish operatsiyasini amalga oshirish

4-bob. Xalqaro to'lov kartalaridagi chet el valyutasini
sotib olish operatsiyalarini amalga oshirish

5-bob. Valyuta ayirboshlash shoxobchasini ro'yxatga olish

6-bob. Valyuta ayirboshlash shoxobchasi ishini tashkil qilish

7-bob. Valyuta ayirboshlash shoxobchasi xodimlarining vazifalari

8-bob. Valyuta ayirboshlash shoxobchasini qimmatliklar,
ma'lumotnomalar bilan ta'minlash va ulardan foydalanish

9-bob. Valyuta ayirboshlash shoxobchasida
valyuta operatsiyalarini amalga oshirish

10-bob. Chet el valyutasining to'lovga yaroqliligini aniqlash

11-bob. Valyuta ayirboshlash shoxobchasida operatsion kunni yakunlash

12-bob. Valyuta ayirboshlash shoxobchasini yopish

13-bob. Konversion bo'lim va valyuta ayirboshlash shoxobchasida
valyuta operatsiyalari amalga oshirilishini nazorat qilish

14-bob. Yakuniy qoidalar

1-ilova. Ma'lumotnoma

2-ilova. Chet el valyutasini xalqaro to'lov kartasiga
o'tkazib berish operatsiyalarini hisobga olish reyestri

3-ilova. Ma'lumotnoma

4-ilova. Xalqaro to'lov kartasidagi chet el valyutasini
naqdsiz shaklda milliy valyutaga ayirboshlash bo'yicha
amalga oshirilgan operatsiyalarni hisobga olish reyestri

5-ilova. Valyuta ayirboshlash shoxobchasining
ro'yxatga olinganligi to'g'risida guvohnoma

6-ilova. Valyuta ayirboshlash shoxobchasini ro'yxatga olish jurnali

7-ilova. Valyuta ayirboshlash shoxobchasida operatsiyalarni
amalga oshirish uchun bo'nak olish to'g'risida talabnoma

8-ilova. Ma'lumotnoma-certificate

9-ilova. Xalqaro to'lov kartasidagi chet el valyutasi va naqd
chet el valyutasini milliy valyutaga ayirboshlash
operatsiyalarini hisobga olish reyestri

10-ilova. Ma'lumotnoma

- 11-ilova. Norezidentlarga chet el valyutasi sotilganligini hisobga olish reyestri
- 12-ilova. Naqd chet el valyutasini inkassoga qabul qilish bo'yicha ma'lumotnoma
- 13-ilova. Naqd chet el valyutasini ekspertizaga qabul qilish bo'yicha ma'lumotnoma
- 14-ilova. Xorijiy davlatlarning shikastlangan yoki to'lovga yaroqsiz pul belgilarini o'sha davlatning to'lovga yaroqli pul belgilariga almashtirish va maydalash operatsiyalarini hisobga olish reyestri
- 15-ilova. Ma'lumotnoma
- 16-ilova. Ma'lumotnoma
- 17-ilova. Konversiya qilingan (almashtirilgan) naqd chet el valyutasini hisobga olish reyestri
- 18-ilova. Ma'lumotnoma
- 19-ilova. Valyuta ayirboshlash shoxobchasi tomonidan amalga oshirilgan operatsiyalar to'g'risida hisobot

Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi, "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi va "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi qonunlariga hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 sentabrdagi PF-5177-son "Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq tijorat banklarida jismoniy shaxslar, shu jumladan yuridik shaxs maqomini olmasdan faoliyat ko'rsatayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlar bilan valyuta ayirboshlash operatsiyalarini amalga oshirish tartibini belgilaydi.

1-BOB. UMUMIY QOIDALAR

1. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

konversion operatsiyalar bo'limi (bundan buyon matnda konversion bo'lim deb yuritiladi) - tijorat banking O'zbekiston Respublikasining rezidentlari bo'lgan jismoniy shaxslar (bundan buyon matnda jismoniy shaxslar deb yuritiladi) va yakka tartibdagi tadbirkorlarga chet el valyutasini naqd pulsiz shaklda valyuta ayirboshlash operatsiyalarini amalga oshirish xizmatlarini ko'rsatish uchun tuzilgan tarkibiy tuzilmasi;

valyuta ayirboshlash shoxobchasi - jismoniy shaxslardan naqd va xalqaro to'lov kartalaridagi chet el valyutasini naqd milliy valyutaga ayirboshlash hamda qonun hujjatlariga muvofiq jismoniy shaxslar - O'zbekiston Respublikasining norezidentlariga naqd chet el valyutasini sotish operatsiyalarini amalga oshiruvchi turg'un shoxobcha;

shaxsni tasdiqlovchi hujjat - pasport, O'zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasi yoki O'zbekiston Respublikasi harbiy xizmatchilari uchun harbiy bilet;

yakka tartibdagi tadbirkor - yuridik shaxs maqomini olmasdan faoliyat ko'rsatayotgan yakka tartibdagi tadbirkor (bundan buyon matnda YATT deb yuritiladi);

kunlik hujjatlar - operatsion kun davomida rasmiylashtirilgan valyuta ayirboshlash operatsiyalari hisobini yuritish hujjatlari;

operatsion kun - jismoniy shaxslarga xizmat ko'rsatish uchun tijorat banki tomonidan belgilangan vaqt;

bank kartasi - tijorat banki tomonidan emissiya qilingan, personalizatsiyalangan, to'lov vositasi sifatida ishlatiladigan va o'z saqlovchisiga bank hisobvarag'idagi mablag'lari va/yoki bank tomonidan ruxsat berilgan mablag'lar doirasida operatsiyalarni, jumladan, hisobvaraqlar orqali naqd pulsiz hisob-kitoblarni (to'lovlarni) amalga oshirish, undan naqd pul mablag'larini va bank kreditini olish imkonini beruvchi to'lov kartasi;

xalqaro to'lov kartasi - xalqaro to'lov tizimlari bilan kelishuvga asosan O'zbekiston Respublikasining tijorat banklari tomonidan emissiya qilingan chet el valyutasidagi xalqaro to'lov kartasi;

qimmatliklar - milliy va chet el valyutalari.

2. Chet el valyutasini sotib olish va sotish kurslari tijorat banklari tomonidan chet el valyutasiga bo'lgan talab va taklifni hisobga olgan holda mustaqil ravishda belgilanadi.

3. Operatsion kun davomida tijorat banki tomonidan chet el valyutasini sotib olish va sotish kursi o'zgartirilishi mumkin.

2-BOB. KONVERSION BO'LIMNING FAOLIYATINI TASHKIL QILISH

4. Konversion bo'lim tijorat bank rahbarining buyrug'iga asosan ochiladi. Mazkur buyruqda xodimlarning shtat birligi, bo'lim faoliyatiga rahbarlik qiluvchi va uni nazorat qiluvchi mansabdor shaxslar ko'rsatilishi kerak.

5. Konversion bo'limning shtat birligi va xodimlarining soni, bo'limning amalga oshiriladigan valyuta operatsiyalarining hajmidan kelib chiqib, bank rahbarining buyrug'iga asosan tasdiqlanadi.

6. Quyidagi ma'lumotlarni tijorat bankining rasmiy veb-saytida hamda Konversion bo'limi joylashgan binoning hamma ko'rishi mumkin bo'lgan joyidagi stendlarga yoki boshqa texnik vositalarga joylashtirish orqali mijozlar e'tiboriga yetkazilishi lozim:

konversion bo'limning ish vaqti;

chet el valyutasini sotib olish va ularga sotish tartibi;

chet el valyutasini sotish va sotib olish kurslari;

konversion bo'lim tomonidan amalga oshiriladigan operatsiyalar turlari;

bank tomonidan ochiladigan xalqaro to'lov kartalari, ularning imkoniyatlari va ulardan foydalanish tartibi to'g'risidagi ma'lumotlar;

xalqaro to'lov kartasini ochganlik uchun undiriladigan vositachilik haqi miqdori.

7. Konversion bo'lim faqat tijorat banki binosida joylashtiriladi va unda to'lov terminallari, hisoblash texnikasi, tegishli dasturiy ta'minotga ega Banklararo yagona elektron tizimga (bundan buyon matnda elektron tizim deb yuritiladi) ulangan kompyuter texnikasi, telefon aloqasi, yonmaydigan temir shkak (seyf), zarur normativ-huquqiy hujjatlar va ma'lumot materiallari, yong'in xavfsizligi signalizatsiyasi va videokuzatuv kameralari bo'lishi lozim.

8. Bank rahbarining tegishli buyrug'isiz bo'lim xodimlari tomonidan o'zlariga yuklatilgan vazifalarni boshqa shaxslarga topshirish taqiqlanadi.

3-BOB. KONVERSION BO'LIMDA CHET EL VALYUTASINI SOTISH OPERATSIYASINI AMALGA OSHIRISH

9. Chet el valyutasini sotish konversion bo'limlar tomonidan xalqaro to'lov kartalaridan foydalangan holda naqd pulsiz shaklda amalga oshiriladi.

10. Konversion bo'limda kunlik naqd pulsiz shakldagi chet el valyutasini sotish miqdori tijorat banki rahbarining buyrug'iga asosan belgilanadi.

11. Jismoniy shaxs va YATT chet el valyutasini sotib olish uchun konversion bo'limga shaxsini tasdiqlovchi hujjatini taqdim etadi va konversion bo'lim mutaxassisi hujjatning nusxasini qabul qilib oladi.

12. Jismoniy shaxsning bank kartasi mavjud bo'lmagan taqdirda, konversion bo'lim mutaxassisi tomonidan jismoniy shaxsga plastik kartalar bo'limiga murojaat etib, o'z nomiga belgilangan tartibda bank kartasini ochish taklif etiladi.

YATT chet el valyutasini sotib olish uchun pul mablag'larini o'zining tegishli hisobvarag'idan o'tkazadi.

13. Milliy valyutadagi mablag' tijorat bankining operatsiya bajariladigan kundagi chet el valyutasini sotish kursi bo'yicha to'lov terminali orqali jismoniy shaxsga tegishli bank kartasidan yechib olinadi va unga milliy valyutadagi mablag' yechib olinganligi to'g'risidagi terminal cheking asl nusxasi beriladi, nusxasi esa kunlik hujjatlarga tikib qo'yiladi.

YaTTning tegishli hisobvarag'idan chet el valyutasini sotib olish uchun tijorat bankining sotish kursi bo'yicha pul mablag'lari bankining tegishli hisobvarag'iga kelib tushganligini tasdiqlovchi to'lov hujjati chop etilib, kunlik hujjatlarga tikib qo'yiladi.

14. Jismoniy shaxs yoki YaTTning shaxsini tasdiqlovchi hujjatidagi tegishli ma'lumotlar konversion bo'lim mutaxassislari tomonidan elektron tizimga kiritiladi. Bunda mazkur Nizomning 1-ilovasiga muvofiq 09017-shakldagi ma'lumotnoma ikki nusxada rasmiylashtiriladi. Ma'lumotnomalar bo'lim mutaxassisi, tegishli jismoniy shaxs yoki YATT tomonidan imzolaniib, ularga mutaxassisning shaxsiy va bo'lim shtamplari bosiladi. Ma'lumotnomaning bir nusxasi tegishli jismoniy shaxsga yoki YaTTga beriladi, ikkinchi nusxasi, mazkur Nizomning 2-ilovasiga muvofiq shakldagi 09008-son reyestr, shaxsini tasdiqlovchi hujjatining nusxasi (YaTTning shaxsini tasdiqlovchi hujjatiga qo'shimcha ravishda guvohnomasi nusxasi) bilan birga kunlik hujjatlarga tikib qo'yiladi.

15. Chet el valyutasi 09017-shakldagi ma'lumotnoma va milliy valyutadagi terminal cheki yoki pul mablag'lari to'langanligi to'g'risidagi to'lov hujjati asosida xalqaro to'lov kartasiga o'tkazib beriladi.

16. Jismoniy shaxs yoki YaTTning xalqaro to'lov kartasi mavjud bo'lmaganda, bank va jismoniy shaxs yoki YATT o'rtasida chet el valyutasida bank hisobvarag'ini ochish to'g'risida ikki tomonlama shartnoma tuziladi hamda konversion bo'lim mutaxassisi tomonidan shartnomaga asosan uning nomiga chet el valyutasida bank hisobvarag'i ochiladi. Shartnomaning bir nusxasi jismoniy shaxsga yoki YaTTga beriladi, ikkinchi nusxasi esa, kunlik hujjatlarga tikib qo'yiladi. Shartnomalar davlat tilida tuziladi, zarur hollarda, rus yoki qoraqalpoq tilida ham tuzilishi mumkin.

17. Xalqaro to'lov kartasi konversion bo'lim mutaxassisi tomonidan "Berilgan xalqaro to'lov kartalarini ro'yxatga olish jurnali"ga imzo chektirgan holda jismoniy

shaxsga yoki YaTTga beriladi. Mazkur jurnal raqamlangan, ip o'tkazib tikilgan, tijorat banki muhri hamda filial rahbari imzosi bilan tasdiqlangan bo'lishi lozim.

4-BOB. XALQARO TO'LOV KARTALARIDAGI CHET EL VALYUTASINI SOTIB OLISH OPERATSIYALARINI AMALGA OSHIRISH

18. Jismoniy shaxs yoki YATT xalqaro to'lov kartasidagi chet el valyutasini sotish uchun tijorat bankining istalgan konversion bo'limiga murojaat etadi. Bunda konversion bo'limning mutaxassisi tomonidan xalqaro to'lov kartasining haqiqatda ushbu jismoniy shaxs yoki YaTTga tegishliligi uning shaxsini tasdiqlovchi hujjati asosida tekshiriladi.

19. Tijorat banki jismoniy shaxs yoki YaTTning xalqaro to'lov kartasidagi chet el valyutasini operatsiya amalga oshiriladigan kundagi chet el valyutasini sotib olish kursiga muvofiq bajaradi. Bunda jismoniy shaxs yoki YaTTning xalqaro to'lov kartasidagi chet el valyutasi doirasida, mablag'lar to'liq yoki qisman milliy valyutaga ayirboshlanishi mumkin. Chet el valyutasi to'langanligini tasdiqlovchi terminal chekinging asl nusxasi yoki ularning hisobvarag'idan to'langan taqdirda, bankning ichki to'lov hujjati beriladi va nusxasi kunlik hujjatlarga tikib qo'yiladi.

20. Chet el valyutasi konversion bo'limning mutaxassisi tomonidan tegishli ma'lumotlarni elektron tizimga kiritish orqali xarid qilinadi. Bunda mazkur Nizomning 3-ilovasiga muvofiq 09020-shakldagi ma'lumotnoma ikki nusxada rasmiylashtiriladi. Ma'lumotnomalar bo'lim mutaxassisi va jismoniy shaxs yoki YATT tomonidan imzolanib, ularga mutaxassisning shaxsiy va bo'lim shtamlari bosiladi. Ma'lumotnomaning bir nusxasi jismoniy shaxsga yoki YaTTga, ikkinchi nusxasi mazkur Nizomning 4-ilovasiga muvofiq shakldagi 09021-son reyestriga ilova qilinib, kunlik hujjatlarga tikib qo'yiladi.

Jismoniy shaxslar xalqaro to'lov kartalaridagi chet el valyutasini valyuta ayirboshlash shoxobchalari orqali naqd milliy valyutaga ayirboshlashlari mumkin.

21. Kun oxirida konversion bo'lim mutaxassisi tomonidan jismoniy shaxs va YaTTning shaxsni tasdiqlovchi hujjatlari nusxalari, YaTTning guvohnoma nusxalari, terminal cheklari va bank ichki to'lov hujjatlari tegishli bo'limga taqdim etiladi. Taqdim etilgan hujjatlarga asosan jismoniy shaxsning bank kartasiga, YaTTning hisobvarag'iga milliy valyuta o'tkazib beriladi.

5-BOB. VALYUTA AYIRBOSHLASH SHOXOBCHASINI RO'YXATGA OLISH

22. Valyuta ayirboshlash shoxobchasi tijorat bank rahbarining buyrug'iga asosan ochiladi. Valyuta ayirboshlash shoxobchasini ochish to'g'risidagi buyruqda valyuta ayirboshlash shoxobchasining joylashgan yeri (pochta manzili), xodimlarining shtat birligi, shoxobcha faoliyatiga rahbarlik qiluvchi va uni nazorat qiluvchi mansabdor shaxslar ko'rsatilishi kerak.

23. Tijorat banki valyuta ayirboshlash shoxobchasini ro'yxatga olish uchun Markaziy bankning tegishli hududiy Bosh boshqarmasiga (bundan buyon matnda hududiy Bosh boshqarma deb yuritiladi) valyuta ayirboshlash shoxobchasini ochish to'g'risidagi buyruqdan ko'chirmani ilova qilib, yozma ravishda murojaat qiladi. Hududiy Bosh boshqarma tomonidan 3 ish kuni ichida valyuta ayirboshlash shoxobchasi ro'yxatga olinib, tijorat bankiga mazkur Nizomning 5-ilovasiga muvofiq shaklda guvohnoma (bundan buyon matnda guvohnoma deb yuritiladi) yuboriladi.

24. Ro'yxatga olingan valyuta ayirboshlash shoxobchasi hududiy Bosh boshqarma tomonidan mazkur Nizomning 6-ilovasiga muvofiq shakldagi "Valyuta ayirboshlash shoxobchasini ro'yxatga olish jurnali"ga qayd etiladi.

25. Guvohnoma yo'qolgan taqdirda tijorat banki hududiy Bosh boshqarmaga quyidagi hujjatlarni ilova qilgan holda yozma ravishda murojaat qilishi shart:
guvohnomaning yo'qolish sabablari ko'rsatilgan dalolatnoma;
topilmalar idorasining guvohnoma haqiqatda yo'qolganligini tasdiqlovchi hujjatining nusxasi.

26. Guvohnomaning dublikati hududiy Bosh boshqarma tomonidan 3 ish kun ichida beriladi. Guvohnomaning dublikatiga "Dublikat" so'zi va uning berilgan sanasi yozib qo'yiladi.

27. Valyuta ayirboshlash shoxobchasining joylashgan yeri (pochta manzili) o'zgargan taqdirda, tijorat banki tomonidan hududiy Bosh boshqarmaga valyuta ayirboshlash shoxobchasining joylashgan yeri (pochta manzili) o'zgarganligi va uning sabablari ko'rsatilgan holda yozma ravishda ma'lum qilinadi. Bunda tijorat banki tomonidan valyuta ayirboshlash shoxobchasini ro'yxatdan o'tkazish uchun umumiy asoslarda qayta murojaat qilinadi.

6-BOB. VALYUTA AYIRBOSHLASH SHOXOBCHASI ISHINI TASHKIL QILISH

28. Valyuta ayirboshlash shoxobchasining ish tartibi u faoliyat yuritayotgan tashkilot ish vaqti bilan kelishilishi lozim.

29. Valyuta ayirboshlash shoxobchasida quyidagi operatsiyalar amalga oshiriladi:
jismoniy shaxslardan va norezident-jismoniy shaxslardan naqd chet el valyutasini naqd milliy valyutaga sotib olish;
norezident-jismoniy shaxslarga (bundan buyon matnda norezident deb yuritiladi) chet el valyutasini sotish;
jismoniy shaxslarning va norezidentlarning xalqaro to'lov kartalaridagi chet el valyutasini naqd milliy valyutaga ayirboshlab berish;
jismoniy shaxslardan va norezidentlardan chet el valyutasini inkassoga qabul qilish;
haqiqiyliги shubha tug'dirgan chet el valyutalarini jismoniy shaxslardan va norezidentlardan ekspertizaga qabul qilish;
jismoniy shaxslarning va norezidentlarning chet el valyutasini o'sha chet el valyutasiga maydalab yoki yirik pul miqdorida berish.

30. Valyuta ayirboshlash operatsiyalarini amalga oshirganlik uchun vositachilik haqi undirilishi mumkin, chet el valyutasini sotish va sotib olish operatsiyalari bundan mustasno. Vositachilik haqining miqdori tijorat banklari tomonidan belgilanadi.

31. Valyuta ayirboshlash shoxobchasi mijozlarning tanishib chiqishi uchun qulay bo'lgan joyga quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan stand bilan jihozlanadi:
valyuta ayirboshlash shoxobchasining ish vaqti;
chet el valyutasini sotib olish va sotish kurslari;
mazkur valyuta ayirboshlash shoxobchasi tomonidan amalga oshiriladigan valyuta ayirboshlash operatsiyalari;
pul belgilarining haqiqiyliги va to'lovga yaroqliligini aniqlash qoidalari;

jismoniy shaxslardan va norezidentlardan chet el valyutasini sotib olish va sotish tartibi;

valyuta ayirboshlash operatsiyalari uchun undiriladigan vositachilik haqi miqdori;

valyuta ayirboshlash shoxobchasining ro'yxatga olinganligi haqidagi guvohnoma nusxasi.

32. Valyuta ayirboshlash shoxobchasida bir vaqtning o'zida ikki nafar xodim - nazoratchi va kassir faoliyat yuritishi hamda maxsus kiyim (uniforma) bilan ta'minlangan bo'lishi lozim. Zarur hollarda, tijorat banki rahbarining buyrug'iga asosan tajribali kassirlar va nazoratchilar valyuta ayirboshlash shoxobchasiga vaqtincha faoliyat yuritish uchun jalb etilishi mumkin.

33. Tijorat banklari tomonidan valyuta ayirboshlash shoxobchasi yonmaydigan temir shkaf (seyf), telefon aloqasi, qo'riqlash va yong'in xavfsizligi signalizatsiyasi, valyutaning haqiqiylikini aniqlaydigan detektor yoki tester, tegishli dasturiy ta'minotga ega kompyuter va hisoblash texnikasi, shuningdek zarur normativ-huquqiy hujjatlar va ma'lumot materiallari bilan ta'minlanadi.

34. Valyuta ayirboshlash shoxobchasida nazoratchi va kassir lavozimga tayinlanganligi to'g'risidagi tegishli buyruqdan ko'chirma bo'lishi kerak.

35. Nazoratchi yoki kassir o'ziga yuklatilgan vazifalarni bank rahbarining tegishli buyrug'isiz boshqa shaxsga ishonib topshirishi va valyuta ayirboshlash shoxobchasiga begona shaxslarni kiritishi taqiqlanadi.

36. Valyuta ayirboshlash shoxobchasining har bir xodimiga familiyasi ko'rsatilgan shtamp, nazoratchiga esa, qo'shimcha ravishda, tijorat bankining nomi, ro'yxatga olish raqami va shoxobchani manzili yozilgan shtamp biriktirib qo'yiladi.

Ishdan tashqari vaqtda valyuta ayirboshlash shoxobchasida qimmatliklar va shtamlarni saqlash taqiqlanadi.

37. Valyuta ayirboshlash shoxobchasi kassiriga qimmatliklar solingan xaltalarni tamg'alash uchun plombir beriladi. Uning plashkasida valyuta ayirboshlash shoxobchasining ro'yxat raqami va qisqartirilgan nomi qayd etiladi. Kassirga plombir tijorat banki tomonidan jurnalga imzo chektirgan holda beriladi.

Inkassatsiya bo'limi (uchastkasi) boshlig'i va tijorat bankining kassa mudiri tomonidan tasdiqlangan plombir izi namunasining bir nusxasi valyuta ayirboshlash shoxobchasining kassiriga beriladi. Ushbu namuna kassir tomonidan qimmatliklar solingan xaltalar olinayotganda inkassatorga ko'rsatiladi. Namunaning ikkinchi nusxasi tijorat bankining kechki kassasiga beriladi.

38. Ishga qabul qilingan xodimlar tijorat banki tomonidan moddiy javobgarlik to'g'risida tegishli qonun hujjatlarining normalari, shuningdek qimmatliklarni saqlash, qabul qilish, berish, ular bilan ishlash, qayta sanash va tashishga doir qoidalar, valyuta ayirboshlash operatsiyalarini o'tkazish va ularning hisobini yuritish tartibi bilan tanishtirilishi shart.

7-BOB. VALYUTA AYIRBOSHLASH SHOXOBCHASI XODIMLARINING VAZIFALARI

39. Valyuta ayirboshlash shoxobchasining nazoratchisi:

qimmatliklar solingan xaltachalarni qabul qiladi, ularni ochishda ishtirok etadi hamda undagi qimmatliklar kam yoki ortiq chiqqan hollarda, ikki nusxada dalolatnoma

tuzadi, ushbu dalolatnomani kassir bilan birga imzolaydi va uning bir nusxasini bankka yuboradi;

ayirboshlash uchun taqdim etilgan milliy va chet el valyutasi ekvivalentini hamda vositachilik haqini hisoblaydi;

amalga oshirilgan valyuta ayirboshlash operatsiyalarini tegishli reyestruga qayd etadi; ma'lumotnoma va kvitansiyalarni to'ldiradi hamda imzolaydi;

amalga oshirilgan valyuta ayirboshlash operatsiyalari bo'yicha hujjatlarni ish kuni oxirida imzolaydi;

ish kuni oxirida qolgan qimmatliklarni dastalari bo'yicha sanab chiqadi va bu qimmatliklarning dastalari bo'yicha xaltalarga to'liq solinishini nazorat qiladi;

amalga oshirilgan operatsiyalar to'g'risida hisobot tuzadi va uni tegishli reyestrlar va ma'lumotnomalar nusxalari asosida tekshirib chiqib, imzolaydi;

qimmatliklarning amaldagi qoldiqlarini amalga oshirilgan operatsiyalar to'g'risidagi hisobot bilan solishtiradi va qimmatliklar ortiq yoki kam chiqqan hollarda, ikki nusxada dalolatnoma tuzadi va uni kassir bilan birga imzolaydi. Uning bir nusxasi tijorat bankiga yuboriladi va ikkinchi nusxasi valyuta ayirboshlash shoxobchasining kunlik hujjatlariga tikib qo'yiladi;

shubhali operatsiyalar haqida zudlik bilan bankning Ichki nazorat xizmatiga yozma ravishda xabar beradi.

40. Valyuta ayirboshlash shoxobchasining kassiri:

qimmatliklarni olish uchun buyurtmanomalarni tuzib tijorat bankiga taqdim etadi;

inkassatorlar olib kelgan qimmatliklar solingan xaltalarni qabul qilib oladi hamda xaltalarni nazoratchi va inkassator ishtirokida ochadi yoki tijorat banki kassasidan qimmatliklarni qabul qilib, valyuta ayirboshlash shoxobchasiga olib keladi;

almashtirish uchun taqdim etilgan banknotlarning haqiqiyliigi va to'lovga yaroqliligini tekshiradi;

reyestrlar, kvitansiyalar va ma'lumotnomalarni, shuningdek nazoratchi tomonidan tuzilgan dalolatnomalarni imzolaydi;

ish kuni oxirida qolgan qimmatliklarni sanaydi, ularni saralab dastalaydi va nazoratchi kuzatuvida qimmatliklarni xaltalarga joylaydi.

41. Kassir pul va tangalarni taxlash hamda ularning o'rab bog'lanishiga shaxsan javob beradi.

42. Quyidagilar taqiqlanadi:

milliy valyutani chet el valyutasiga sirdan almashtirish;

valyuta ayirboshlash operatsiyalari haqidagi ma'lumotlarni elektron tizimga kiritmasdan valyutani sotish operatsiyasini amalga oshirish;

tegishli ma'lumotnoma bermasdan, valyuta ayirboshlash operatsiyalarini amalga oshirish;

valyuta ayirboshlash operatsiyasini bajarmay turib, tegishli ma'lumotnomalar berish;

valyuta ayirboshlash shoxobchasida chet el valyutasidagi va eng kam oylik ish haqining yarmidan ortiq miqdorda milliy valyutadagi shaxsiy jamg'armalarning bo'lishi.

8-BOB. VALYUTA AYIRBOSHLASH SHOXOBCHASINI QIMMATLIKLAR, MA'LUMOTNOMALAR BILAN TA'MINLASH VA ULARDAN FOYDALANISH

43. Qimmatliklarni olish uchun kassir tomonidan mazkur Nizomning 7-ilovasiga muvofiq shaklda 09001-son talabnoma ikki nusxada to'ldiriladi. Talabnomaning bir nusxasi tijorat banki kassasida qoldirilib, ikkinchi nusxasi kunlik hujjatlarga tikib qo'yiladi.

Tijorat banki buxgalteriyasining mas'ul xodimi valyuta ayirboshlash shoxobchasining talabnomasi hamda tegishli kassa va balansdan tashqari orderlar asosida valyuta ayirboshlash shoxobchasiga jo'natish uchun tayyorlangan qimmatliklarning uch nusxada ro'yxatini tuzadi. Ularning har birini tijorat bankining moddiy javobgar shaxsi imzolaydi.

Valyuta ayirboshlash shoxobchasiga jo'natish uchun tayyorlangan qimmatliklar ularning ro'yxati nusxasi bilan birga moddiy javobgar shaxslar tomonidan inkassatsiya xaltasiga joylanadi, shundan so'ng xalta tamg'alanadi. Valyuta ayirboshlash shoxobchasiga biriktirilgan har bir inkassatsiya xaltasida valyuta ayirboshlash shoxobchasining ro'yxat raqami va tijorat bank nomi yoziladi. Inkassator xaltalarni qabul qilib olgandan so'ng, qimmatliklar ro'yxatining ikkinchi nusxasini imzolaydi.

44. Valyuta ayirboshlash shoxobchasini ish kuni boshlanishidan oldin qimmatliklar bilan ta'minlash yoki unga ish kuni davomida qo'shimcha qimmatliklar keltirish inkassatorlar tomonidan amalga oshiriladi, valyuta ayirboshlash shoxobchasi tijorat banki binosida joylashgan hollar bundan mustasno.

45. Inkassator keltirgan xaltalar nazoratchi ishtirokida kassir tomonidan qabul qilinadi. Bunda xaltaning tamg'a urilgan tizimchasining butligi va tamg'a izining aniqligi sinchiklab tekshiriladi. Kassir tomonidan xalta ochilayotganda va unga solingan qimmatliklar tekshirilayotganda uning yonida nazoratchi va inkassator turishi shart.

46. Valyuta ayirboshlash shoxobchasining talabnomasi, tegishli kassa va balansdan tashqari orderlari asosida tuzilgan ro'yxatning birinchi nusxasi uning ikkinchi nusxasi va qabul qilingan qimmatliklar hisobi bilan solishtirilgandan so'ng, qimmatliklar qabul qilib olinganligi to'g'risidagi ro'yxatning ikkinchi nusxasi nazoratchi va kassir tomonidan imzolanadi va valyuta ayirboshlash shoxobchasining shtampi bilan tasdiqlanadi hamda ro'yxatning ikkinchi nusxasi inkassatsiya bo'limiga topshirish uchun inkassatorga qaytariladi. Ro'yxatning birinchi nusxasi valyuta ayirboshlash shoxobchasining kunlik hujjatlariga tikib qo'yiladi.

9-BOB. VALYUTA AYIRBOSHLASH SHOXOBCHASIDA VALYUTA OPERATSIYALARINI AMALGA OSHIRISH

47. Valyuta ayirboshlash shoxobchasida jismoniy shaxslardan va norezidentlardan chet el valyutasi cheklanmagan miqdorda sotib olinadi.

48. Valyuta ayirboshlash shoxobchasi tomonidan amalga oshirilgan operatsiyalar to'g'risidagi ma'lumotlar elektron tizimga kiritiladi.

Chet el valyutasini sotib olishda operatsiya eng kam oylik ish haqining 500 baravari miqdoriga teng bo'lgan yoki undan oshgan hollarda, bunday operatsiyalar tegishli ma'lumotlarni elektron tizimga kiritish orqali amalga oshirilishi shart. Bunda jismoniy shaxslardan shaxsini tasdiqlovchi hujjat va norezidentlardan pasport talab etiladi hamda ularning nusxasi kunlik hujjatlarga tikib qo'yiladi.

49. Kassir jismoniy shaxslar va norezidentlar tomonidan taqdim etilgan chet el valyutasining haqiqiyliigi va to'lovga yaroqliligini texnik vositalar yordamida tekshirishi shart.

50. Chet el valyutasini jismoniy shaxslar va norezidentlardan sotib olishda mazkur Nizomning 8-ilovasiga muvofiq 09002-shakldagi ma'lumotnoma ikki nusxada rasmiylashtiriladi. Ushbu ma'lumotnomaning ikkala nusxasi ham nazoratchi, kassir va jismoniy shaxs yoki norezident tomonidan imzolanib, ularga valyuta ayirboshlash shoxobchasi shtampi hamda nazoratchi va kassirning shaxsiy shtamplari bosiladi.

51. Chet el valyutasi jismoniy shaxslardan sotib olinayotganda, ularga 09002-shakldagi ma'lumotnomaning ikkinchi nusxasi beriladi, uning birinchi nusxasi esa kunlik hujjatlarga tikib qo'yiladi.

Ushbu ma'lumotnoma chet el valyutasini valyuta ayirboshlash shoxobchasi tomonidan sotib olinganligini tasdiqlaydi, biroq sarflanmay qolgan milliy valyutani chet el valyutasiga qayta almashtirib berish huquqini bermaydi.

52. Chet el valyutasi norezidentlardan pasport va chet el valyutasini chetdan olib kelganligini tasdiqlovchi bojxona deklaratsiyasi yoki ularning xalqaro to'lov kartalaridan bank terminali orqali yechib olinganligini tasdiqlovchi terminal cheki asosida sotib olinganda, unga 09002-shakldagi ma'lumotnomaning birinchi nusxasi beriladi. Mazkur ma'lumotnoma sarflanmay qolgan milliy valyutani chet el valyutasiga qayta almashtirish uchun asos bo'ladi. Operatsiya summasi bojxona deklaratsiyasida nazarda tutilgan valyuta miqdoridan oshmasligi kerak. Ma'lumotnomaning ikkinchi nusxasi norezident pasportining nusxasi bilan birga kunlik hujjatlarga tikib qo'yiladi va bojxona deklaratsiyasiga nazoratchi tomonidan valyuta almashtirilganligi to'g'risida belgi qo'yiladi.

53. Chet el valyutasi norezidentlardan pasport va chet el valyutasini chetdan olib kelganligini tasdiqlovchi bojxona deklaratsiyasi taqdim etilmagan holda sotib olinganda, ushbu operatsiya mazkur Nizomning 50-bandiga muvofiq rasmiylashtiriladi.

54. Xalqaro to'lov kartasidagi chet el valyutasi va naqd chet el valyutasini milliy valyutaga ayirboshlash operatsiyalari mazkur Nizomning 9-ilovasiga muvofiq shakldagi 09003-son reyestrda rasmiylashtiriladi.

55. Valyuta ayirboshlash shoxobchasida jismoniy shaxslarning va norezidentlarning xalqaro to'lov kartalaridagi chet el valyutasi naqd milliy valyutaga ayirboshlab beriladi. Ularga valyuta sotib olinganligini tasdiqlovchi 09002-shakldagi ma'lumotnomaning bir nusxasi va terminal chekinging asl nusxasi beriladi. Ma'lumotnomaning va terminal chekinging nusxasi kunlik hujjatlarga tikib qo'yiladi.

56. Norezidentlarga chet el valyutasini sotish valyuta ayirboshlash shoxobchasining 09002-shakldagi ma'lumotnomaning birinchi nusxasi, bankomat cheki yoki xalqaro joriy operatsiyalar amalga oshirilishi natijasida respublika hududida so'm mablag'larining qonuniy manbalardan olinganligini tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etilganda amalga oshiriladi.

57. Chet el valyutasi norezidentlarga sotilganda, chet el valyutasi sotilganligini tasdiqlovchi mazkur Nizomning 10-ilovasiga muvofiq 09007-shakldagi ma'lumotnoma ikki nusxada rasmiylashtiriladi. 09007-shakldagi ma'lumotnomaning bir nusxasi norezidentga beriladi, ikkinchi nusxasi uning pasport nusxasi bilan birga mazkur Nizomning 11-ilovasiga muvofiq shakldagi 09010-son reyestrda ilova qilinadi va hisobot tuzish uchun asos hisoblanadi.

58. Valyuta ayirboshlash shoxobchasida jismoniy shaxslardan va norezidentlardan to'lovga yaroqsiz deb topilgan yoki muomaladan chiqarilgan chet el valyutasi inkassoga qabul qilinishi mumkin.

59. Chet el valyutasini inkassoga qabul qilish jismoniy shaxslardan va norezidentlardan ularning arizasiga asosan, jismoniy shaxslar tomonidan shaxsini tasdiqlovchi hujjat, norezidentlar pasport taqdim etganda, vositachilik haqi undirilgan holda amalga oshiriladi. Jismoniy shaxs va norezident arizasida o'zining yashash manzilini aniq ko'rsatishi shart.

60. Chet el valyutasi inkassoga qabul qilinganda, jismoniy shaxsga va norezidentga ikki nusxada to'ldiriladigan mazkur Nizomning 12-ilovasiga muvofiq 09004-shakldagi ma'lumotnomaning bir nusxasi beriladi, ikkinchi nusxasi hisobot tuzish uchun asos hisoblanadi va kunlik hujjatlarga jismoniy shaxsning shaxsini tasdiqlovchi hujjatining nusxasi va norezidentning pasportining nusxasi bilan birga tikib qo'yiladi.

61. Chet el bankidan inkassoga qabul qilingan chet el valyutasi uchun vositachilik haqi undirilgandan so'ng, inkassoga qabul qilingan chet el valyutasi jismoniy shaxsning yoki norezidentning bankdagi chet el valyutasi yoki milliy valyutadagi hisobvarag'iga o'tkazilishi yoki jismoniy shaxsning xohishiga ko'ra naqd shaklda berilishi mumkin.

62. Chet el banki inkassoga qabul qilingan naqd chet el valyutasini almashtirishdan bosh tortganda, tijorat banki chet el banking inkassoga qabul qilingan naqd chet el valyutasini to'lashdan bosh tortganligini tasdiqlovchi hujjat nusxasini ilova qilgan holda arizada ko'rsatilgan manzilga yozma xabar yuboradi.

63. Valyuta ayirboshlash shoxobchasi tomonidan haqiqiylikiga shubha tug'ilgan naqd chet el valyutasini ekspertizaga qabul qilish jismoniy shaxslar tomonidan shaxsini tasdiqlovchi hujjat, norezidentlar tomonidan pasport taqdim etilgan taqdirda, amalga oshiriladi. Bunda unga naqd chet el valyutasining ekspertizaga qabul qilinganligi to'g'risida mazkur Nizomning 13-ilovasiga muvofiq 09005-shakldagi ma'lumotnoma ikki nusxada rasmiylashtiriladi. 09005-shakldagi ma'lumotnomaning bir nusxasi jismoniy shaxsga beriladi, ikkinchi nusxasi uning shaxsini tasdiqlovchi hujjatining nusxasi bilan birga kunlik hujjatlarga tikib qo'yiladi.

64. Ekspertizaga qabul qilingan chet el valyutasining haqiqiylikini aniqlash uchun tijorat banklari tomonidan ekspert komissiyasi tuziladi. Ekspertiza natijalari bo'yicha komissiya tomonidan dalolatnoma tuziladi. Ushbu dalolatnomada valyuta turi, nominali, chiqarilgan yili, seriyasi va raqami, emitent bank va ekspertizaga qabul qilingan chet el valyutasining o'ziga xos boshqa xususiyatlari ko'rsatiladi. Ekspertiza davomida chet el valyutasining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash imkoniyati bo'lmagan taqdirda, tijorat banklari tomonidan haqiqiylikiga shubha tug'ilgan naqd chet el valyutalari boshqa tijorat banklari yoki chet el banklariga ekspertizadan o'tkazish uchun yuborilishi mumkin.

Ekspertiza natijasida naqd chet el valyutasi haqiqiy deb topilsa, vositachilik haqi undirilib, chet el valyutasi 09005-shakldagi ma'lumotnoma asosida jismoniy shaxsga qaytarib beriladi.

65. Ekspert komissiyasi tomonidan haqiqiy emas deb topilgan naqd chet el valyutalari egalariga qaytarib berilmaydi va ekspertiza dalolatnomasiga ilova qilingan holda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuboriladi. Valyuta egasiga uning talabi bilan ekspertiza dalolatnomasining nusxasi berilishi mumkin.

66. Valyuta ayirboshlash shoxobchasida shikastlangan chet el valyutasini shikastlanmagan shu turdagi chet el valyutasiga almashtirib berish operatsiyalari amalga oshirilishi mumkin. Bunday operatsiyalar mazkur Nizomning 14-ilovasiga muvofiq shakldagi 09011-son reyestriga rasmiylashtiriladi.

Eng kam oylik ish haqining 500 baravari yoki undan oshgan ekvivalentdagi bunday operatsiyalar jismoniy shaxslar tomonidan shaxsini tasdiqlovchi hujjat, norezidentlar tomonidan pasport taqdim qilinganda, vositachilik haqi undirilgan holda amalga oshiriladi. Chet el valyutasi mazkur Nizomning 70-bandida nazarda tutilgan asoslar mavjud bo'lganda, shikastlangan deb topiladi.

Bunday operatsiyalar amalga oshirilganda mazkur Nizomning 15-ilovasiga muvofiq 09012-shakldagi ma'lumotnoma ikki nusxada rasmiylashtiriladi va uning bir nusxasi

jismoniy shaxsga beriladi, ikkinchi nusxasi kunlik hujjatlarga tikib qo'yiladi, operatsiya miqdori eng kam oylik ish haqining 500 baravari yoki undan oshgan taqdirda, jismoniy shaxsning shaxsini tasdiqlovchi hujjati nusxasi ham kunlik hujjatlarga tikib qo'yiladi.

67. Valyuta ayirboshlash shoxobchasida chet el valyutasini o'sha chet el valyutasiga maydalab yoki yirik pul miqdoriga almashtirib berish operatsiyalari amalga oshirilishi mumkin. Eng kam oylik ish haqining 500 baravari yoki undan oshgan ekvivalentdagi bunday operatsiyalar jismoniy shaxslar tomonidan shaxsini tasdiqlovchi hujjat, norezidentlar tomonidan pasport taqdim qilinganda, vositachilik haqi undirilgan holda amalga oshiriladi.

Bunday operatsiyalarda mazkur Nizomning 16-ilovasiga muvofiq 09013-shakldagi ma'lumotnoma ikki nusxada rasmiylashtiriladi va 09011-son reyestruga kiritiladi. Ushbu ma'lumotnomaning bir nusxasi jismoniy shaxsga yoki norezidentga beriladi, ikkinchi nusxasi esa, kunlik hujjatlarga tikib qo'yiladi. Operatsiya miqdori eng kam oylik ish haqining 500 baravari yoki undan oshgan taqdirda, jismoniy shaxsning shaxsini tasdiqlovchi hujjati nusxasi yoki norezidentning pasport nusxasi ham kunlik hujjatlarga tikib qo'yiladi.

68. Valyuta ayirboshlash shoxobchasida bir xorijiy davlatning naqd valyutasini boshqa xorijiy davlatning naqd valyutasiga almashtirish (konversiya) operatsiyalari amalga oshirilishi mumkin. Eng kam oylik ish haqining 500 baravari yoki undan oshgan ekvivalentdagi bunday operatsiyalar jismoniy shaxslar tomonidan shaxsini tasdiqlovchi hujjat, norezidentlar tomonidan pasport taqdim qilingan holda amalga oshiriladi.

69. Konversiya operatsiyalari mazkur Nizomning 17-ilovasiga muvofiq shakldagi 09014-son "Konversiya qilingan (almashtirilgan) naqd chet el valyutasini hisobga olish reyestri"da rasmiylashtiriladi. Konversiya operatsiyasi amalga oshirilganda mazkur Nizomning 18-ilovasiga muvofiq 09015-shakldagi ma'lumotnoma ikki nusxada rasmiylashtiriladi. Ushbu ma'lumotnomaning bir nusxasi jismoniy shaxsga beriladi, ikkinchi nusxasi esa, kunlik hujjatlarga tikib qo'yiladi.

Operatsiya miqdori eng kam oylik ish haqining 500 baravari yoki undan oshgan taqdirda, jismoniy shaxsning shaxsini tasdiqlovchi hujjati nusxasi ham kunlik hujjatlarga tikib qo'yiladi.

10-BOB. CHET EL VALYUTASINING TO'LOVGA YAROQLILIGINI ANIQLASH

70. Chet el valyutasi quyidagi hollarda shikastlangan hisoblanadi:

emitent bank nomi, valyuta qiymatining raqamlar va so'z bilan ko'rsatilishi, old va orqa tomonining asosiy rasmi (surati), shuningdek qalbakilashtirishdan himoya qiluvchi elementlari (suv belgisi, magnitli belgilar, qog'ozga kiritilgan rangli tolalar, jumladan, ultrabinafsha nurlarda ko'rinadigan tolalar, konfetti, himoya iplari, mikromatn, nur sochuvchi rasmlar va boshqalar) va boshqa asosiy belgilarini saqlab qolgan bo'lsa;

siyqalangan va ifloslangan bo'lsa;

yopishtirib qo'yilgan yirtilgan burchaklari yoki qismlari bo'lsa;

banknot yopishtirib qo'yilgan va unchalik katta bo'lmagan yirtilarlarga ega bo'lsa;

mayda moy dog'lari va boshqa dog'lar, yozuvlar va muhrlar o'rni bo'lganda va ular banknotning haqiqiylikni aniqlashga xalaqit bermaydigan va to'lovga yaroqlilikning asosiy belgilarini 50 foizdan ortig'ini to'sib qo'ymagan bo'lsa;

banknotlar mayda teshiklarga ega bo'lganda.

71. Chet el valyutasi quyidagi hollarda yaroqsiz hisoblanadi:

to'lovga yaroqlilikning asosiy belgilarini saqlab qolmagan bo'lsa;

dastlabki rangi o'zgargan yoki rangi o'chgan bo'lsa;
yongan yoki kuygan holatda bo'lsa;
to'lovga yaroqlilikning asosiy belgilarini 50 foizdan ortiq qismiga bo'yoq yoki siyoh to'kilgan bo'lsa;
banknotda kimyoviy reaktivlar ta'siri bo'lsa;
muayan darajada qasddan shikastlangan (asosiy rasmlari, xususan nominali o'zgartirilgan, himoya ipchalari olib tashlangan, katta hajmdagi yozuvlar bo'lgan) bo'lsa;
emitent bank tomonidan muomaladan chiqarilgan bo'lsa;
banknotlar aniq bosma xatoga ega bo'lgan (suv belgisi yoki himoya ipchalarining yo'qligi yoki noto'g'ri joylashganligi), tasvirlari to'liq bosilmagan yoki surkalib ketgan bo'lsa.

72. To'lovga yaroqsiz pul belgilari valyuta ayirboshlash shoxobchasi tomonidan inkassoga emitent bankka jo'natish uchun qabul qilinishi mumkin.

73. Valyuta ayirboshlash shoxobchasining nazoratchisi va kassiri o'zlari qabul qilgan chet el valyutasining haqiqiyliги va to'lovga yaroqliligi uchun javobgardir.

11-BOB. VALYUTA AYIRBOSHLASH SHOXOBCHASIDA OPERATSION KUNNI YAKUNLASH

74. Operatsion kun yakunida ma'lumotnomalar va reyestrlarning tegishli nusxalari asosida amalga oshirilgan operatsiyalar bo'yicha mazkur Nizomning 19-ilovasiga muvofiq shakldagi 09016-son hisobot tayyorlanadi.

75. Amalga oshirilgan operatsiyalar to'g'risidagi hisobot, qimmatliklar va reyestrlar shu kunning o'zida inkassatsiya xizmatidan foydalangan holda tijorat bankiga olib borilishi shart, valyuta ayirboshlash shoxobchasi tijorat banki binosida joylashgan hollar bundan mustasno.

Kun oxirida valyuta ayirboshlash shoxobchasida qimmatliklar qoldirilishi taqiqlanadi.

76. Tijorat bankiga olib boriladigan qimmatliklar bo'yicha kassir tomonidan uch nusxada ilova qaydnomasi rasmiylashtiriladi. Qaydnoma kassir va nazoratchi tomonidan imzolanadi. Kassir qimmatliklarni, shuningdek qaydnomaning bir nusxasini hisobot va tasdiqlovchi hujjatlar bilan birga xaltaga soladi va uni tamg'alaydi.

77. Qimmatliklar solingan xaltani olishdan oldin inkassator kassirga o'zining xizmat guvohnomasi, qimmatliklarni olish huquqini beruvchi tegishli ishonchnoma va tashrif varaqasini taqdim etadi. Kassir tashrif varaqasining tegishli ustuniga qimmatliklar topshirilgan vaqt, xalta raqami, topshirilgan qimmatliklar summasining milliy valyutadagi ekvivalentini yozib qo'yadi va uni imzolab, inkassatorga uning hujjatlarini qaytaradi va qimmatliklar solib tamg'alangan xaltani beradi.

Inkassator tamg'alagich izining aniqligi, uning namunadagiga mos kelishi, shuningdek tashrif varaqasiga yozilgan summalar ilova qaydnomasida ko'rsatilgan summa bilan bir xilligini tekshirib, ilova qaydnomasining kassirda qoladigan uchinchi nusxasini imzolab, sanani yozadi va inkassatsiya bo'limining (uchastkasining) nomi yozilgan muhrni bosadi va ilova qaydnomasining ikkinchi nusxasi bilan birga xaltani qabul qilib oladi.

78. Keltirilgan xaltalar va ularning ilova qaydnomalari tijorat bankinging kechki kassa xodimlari tomonidan qabul qilinadi va ertalab kassa mudiriga topshiriladi.

79. Bank buxgalteriyasining mas'ul xodimlari taqdim qilingan hujjatlar bo'yicha tuzilgan hisobotning to'g'riligini, qimmatliklarning to'la-to'kis topshirilganligini va ulardan to'g'ri foydalanilganligini tekshiradi, valyuta ayirboshlash shoxobchasining hisobotiga kiritilgan operatsiyalarni bank balansida aks ettirish, shuningdek mazkur valyuta ayirboshlash shoxobchasi kassiri hisobidagi bo'naklar summalari yuzasidan hisob-kitob qilish uchun orderlar tuzadi. Barcha hujjatlar va tuzilgan orderlar tijorat bankining valyuta ayirboshlash operatsiyalariga mas'ul bo'lgan bo'lim boshlig'i yoki bosh buxgalteri tomonidan tekshirilib, kunlik hujjatlarga tikib qo'yiladi.

80. Amalda mavjud qimmatliklarni sanash, ularni saralash, tayyorlash va o'rab bog'lash ishlari bilan ayirboshlash shoxobchasining kassiri va nazoratchisi shug'ullanadi. Bunda, ayirboshlash shoxobchasi kassiri kun boshida tijorat bankidan olgan qimmatliklar qoldig'i, ish kuni davomida qimmatliklar bilan o'tkazilgan operatsiyalarni hisobga olgan holda, mazkur qimmatliklarning har bir turi bo'yicha kun oxirida amalda qolgan qimmatliklar miqdoriga mos kelishiga ishonch hosil qilishi lozim.

Qimmatliklar kam yoki ortiqcha ekanligi aniqlangan hollarda kassir bu haqda tijorat bankiga yozma ravishda xabar qilishi shart. Kamomad yoki ortiqcha pul chiqqani to'g'risidagi xabarni kassir tijorat bankiga shu kuni bajarilgan operatsiyalar to'g'risida hisobot bilan jo'natadi. Aniqlangan ortiqcha pullar yoki kamomad to'g'risida ikki nusxada dalolatnoma tuzilib, unga kassir va nazoratchi imzo chekadi. Dalolatnomaning birinchi nusxasi hisobot bilan birga tijorat bankiga yuboriladi. Yo'qotilgan qimmatliklar aybdor shaxslardan undiriladi, ortiqcha mablag'lar tijorat banki daromadiga kirim qilinadi.

81. Bayram va dam olish kunlari hamda navbat bilan kecha-kunduz ishlaydigan valyuta ayirboshlash shoxobchalarida valyuta ayirboshlash operatsiyalari mazkur Nizom talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

12-BOB. VALYUTA AYIRBOSHLASH SHOXOBCHASINI YOPISH

82. Valyuta ayirboshlash shoxobchasi quyidagi hollarda yopiladi:
tijorat bankining ixtiyoriga ko'ra;
tijorat bankiga valyuta operatsiyalarini amalga oshirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan sanksiyalar qo'llanilganda.

83. Valyuta ayirboshlash shoxobchasini yopish to'g'risida tijorat banki rahbari tomonidan buyruq chiqariladi va buyruq nusxasi u chiqarilgan kundan e'tiboran 3 ish kuni ichida tegishli hududiy Bosh boshqarmaga kuzatuv xatiga ilova qilingan holda yuboriladi. Hududiy Bosh boshqarma tomonidan tijorat banki rahbarining valyuta ayirboshlash shoxobchasini yopish to'g'risidagi buyrug'iga asosan, valyuta ayirboshlash shoxobchasini ro'yxatga olish jurnaliga tegishli yozuv kiritiladi.

13-BOB. KONVERSION BO'LIM VA VALYUTA AYIRBOSHLASH SHOXOBCHASIDA VALYUTA OPERATSIYALARI AMALGA OSHIRILISHINI NAZORAT QILISH

84. Konversion bo'lim va valyuta ayirboshlash shoxobchasining qonun hujjatlari talablariga muvofiq faoliyat yuritishi tijorat banki tomonidan har oyda kamida bir marta tekshirib turilishi shart.

85. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki konversion bo'limlar va valyuta ayirboshlash shoxobchalari faoliyatida valyuta operatsiyalarini amalga oshirishda qonun hujjatlari talablariga rioya etilishi yuzasidan qonun hujjatlariga muvofiq tekshirishlar o'tkazishi mumkin.

86. Konversion bo'lim yoki valyuta ayirboshlash shoxobchasida yaqin qarindoshlarning birga faoliyat yuritishi taqiqlanadi.

87. Konversion bo'lim va valyuta ayirboshlash shoxobchasi xodimlarini ishga olish, ularni rotatsiya qilish va malakasini oshirib borish tijorat banklari tomonidan mustaqil ravishda ishlab chiqilgan ichki hujjat asosida tartibga solinadi.

88. Shoxobchada pul mablag'larining kam va ortiq ekanligi, shuningdek boshqa qoidabuzarliklar aniqlangan taqdirda, xizmat tekshiruvidan keyin bank tomonidan materiallar huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuboriladi.

14-BOB. YAKUNIY QOIDALAR

89. Valyuta ayirboshlash operatsiyalarini amalga oshirish vaqtida muntazam ravishda kamchiliklarga yo'l qo'yish holatlari aniqlanganda, Markaziy bank tijorat banklarining valyuta operatsiyalarini amalga oshirishini vaqtinchalik to'xtatib qo'yishga haqli.

90. Mazkur Nizom talablarining buzilishida aybdor shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

Nizomga
1-ILOVA

09017-shakl

Tijorat bankining emblemasi

(tijorat bankining nomi)

(tijorat bankining shtampi)

-son ma'lumotnoma

20 ____ yil " ____ " ____
(kun) (oy)

(F.I.O)

ning

bank plastik

kartasidan/hisobraq
amidan to'lanadi.

_____ (milliy valyutaning summasi raqam va so'z bilan yoziladi)

Halqaro to'lov
kartasiga
o'tkazib beriladi

_____ (chet el valyutasining summasi raqam va so'z bilan yoziladi)

Ma'ul xodimning
shtampi va imzosi _____

Mijozning
imzosi _____

Nizomga
2-ILOVA

09008-son reyestr

_____ (konversion operatsiyalar bo'limining shtampi)

**Chet el valyutasini xalqaro to'lov kartasiga o'tkazib
berish operatsiyalarini hisobga olish
REYESTRI**

20____ yil " _____ " _____
(kun) (oy)

F.I.O.	Mijozning shaxsini tasdiqlovchi hujjat bo'yicha ma'lumotlar				Sotilgan chet el valyutasining		Kurs	Mijozdan qabul qilingan milliy valyuta summasi	Operatsiya vaqti	Ma'lumotning o-maning raqami
	hujjat turi va seriyasi	raqami	qachon va kim tomonidan berilgan	turar joyi	nomi	summasi				
<i>1</i>	<i>2</i>	<i>3</i>	<i>4</i>	<i>5</i>	<i>6</i>	<i>7</i>	<i>8</i>	<i>9</i>	<i>10</i>	<i>11</i>

Nizomga

Tijorat bankining emblemasi

_____ (tijorat bankining nomi)

_____ (konversion operatsiyalar bo'limining shtampi)

-son ma'lumotnoma

20 ____ yil " _____ " _____
(kun) (oy)

_____ ning

(F.I.O)

_____ xalqaro to'lov kartasidan yechib olinadi.

_____ (chet el valyutasining summasi raqam va so'z bilan yoziladi)

_____ bank plastik kartasiga/hisobvarag'iga o'tkazib berildi.

_____ (milliy valyutaning summasi raqam va so'z bilan yoziladi)

Ma'ul xodimning shtampi va imzosi _____

Mijozning imzosi _____

Nizomga
4-ILOVA

09021-son reyestr

_____ konversion operatsiyalar bo'limining shtampi

**Xalqaro to'lov kartasidagi chet el valyutasini naqdsiz
shaklda milliy valyutaga ayirboshlash bo'yicha amalga
oshirilgan operatsiyalarni hisobga olish
REYESTRI**

20____ yil " _____ " _____
(kun) (oy)

F.I.O.	Xalqaro to'lov kartasidan yechib olingan chet el valyutasi		Kurs	Milliy valyuta summasi	Operatsiya vaqti	Ma'lumotnoma raqami
	nomi	summasi				
<i>1</i>	<i>2</i>	<i>3</i>	<i>4</i>	<i>5</i>	<i>6</i>	<i>7</i>

(imzo)

(imzo)

**Nizomga
5-ILOVA**

(O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining
tegishli hududiy Bosh boshqarmasi blanki)

**00000000-son valyuta ayirboshlash shoxobchasining
ro'yxatga olinganligi to'g'risida
GUVOHNOMA**

Mazkur
guvohnoma

karash
li
-
so
n

(tijorat bankining to'liq nomi)

valyuta ayirboshlash shoxobchasini O'zbekiston
Respublikasi Markaziy bankining Bosh boshqarmasi
tomonidan

(valyuta ayirboshlash shoxobchasining joylashgan yeri (pochta manzili))

manzili bo'yicha ro'yxatga olinganligi to'g'risida berildi.

**Markaziy bankning
Bosh boshqarmasi boshlig'i**

M.O'.

(imzo)

Nizomga
6-ILOVA

Valyuta ayirboshlash shoxobchasini ro'yxatga olish JURNALI

Tegishli viloyat kodi	Bank kodi	Valyuta ayirboshlash shoxobchasining tartib raqami	Ro'yxatga olingan sanasi	Valyuta ayirboshlash shoxobchasining joylashgan yeri (pochta manzili)	Tijorat bankining nomi	Markaziy bankning hududiy Bosh boshqarmasi boshlig'ining F.I.O., imzosi	Yopildi (sana va mansabdor shaxsning imzosi, buyruq raqami va sanasi)	Guvohnoma bekor qilinishiga asos
1	2	3	4	5	6	7	8	9
a	b	v						
00	000	000						

Nizomga
7-ILOVA

09001-shakl

(valyuta ayirboshlash
shoxobchasining shtampi)

ruxsat beraman

Valyuta ayirboshlash shoxobchasida operatsiyalarni amalga oshirish uchun bo'nak olish to'g'risida TALABNOMA

(valyuta ayirboshlash shoxobchasi xodimining F.I.O.)

(valyuta ayirboshlash shoxobchasining nomi)

Quyidagilarga ruxsat berishingizni so'rayman:

I. 20 ____ yil " ____ " xolatiga ko'ra milliy va chet el valyutasida
____ quyidagi miqdordagi bo'nak:

a) milliy
valyutada:

(summa raqam va so'z bilan yoziladi)

b) naqd chet el
valyutasi:

(valyutaning nomi, summasi raqam va so'z bilan yoziladi)

II. Ma'lumotnom
alar:

(kerakli ma'lumotlarning shakli yoziladi)

(valyuta ayirboshlash
shoxobchasi xodimining
imzosi)

**Nizomga
8-ILOVA**

09002-shakl
1-nusxa

Tijorat banking emblemasi

(tijorat banking nomi)

(valyuta ayirboshlash
shoxobchasining shtampi)

_____-son ma'lumotnoma-certificate

20 ____ yil " ____ " ____
(kun) (oy)

almashtiril
di

(valyutaning nomi, summasi raqam va so'z bilan yoziladi
type of currency, amount in figures and in words)

_____ so'm berildi
sums paid out

(valyuta egasining imzosi-
holder's signature)

(valyuta ayirboshlash
shoxobchasi xodimlarining
imzosi)

Mazkur ma'lumotnoma chet el valyutasining so'mga almashtirilganligini tasdiqlash uchun berildi. U sarflanmay qolgan so'mni naqd chet el valyutasiga qayta almashtirish huquqini beradi.

This certificate is delivered in confirmation of the fact of exchange of foreign currency against sums. This certificate gives a right to reexchange foreign currency.

09002-shakl
2-nusxa

Tijorat bankinging emblemasi

(tijorat bankinging nomi)

(valyuta ayirboshlash
shoxobchasining shtampi)

_____ -son ma'lumotnoma-certificate

20 ____ yil " _____ " _____
(kun) (oy)

almashtiril
di

(valyutaning nomi, summasi raqam va so'z bilan yoziladi
type of currency, amount in figures and in words)

_____ so'm berildi
sums paid out

(valyuta egasining imzosi-
holder's signature)

(valyuta ayirboshlash
shoxobchasi xodimlarining
imzosi)

Mazkur ma'lumotnoma chet el valyutasining so'mga almashtirilganligini tasdiqlash uchun berildi. U sarflanmay qolgan so'mni naqd chet el valyutasiga qayta almashtirish huquqini bermaydi.

This certificate is delivered in confirmation of the fact of exchange of foreign currency against sums. This certificate does not give any right to reexchange foreign currency.

(valyuta ayirboshlash shoxobchasining
shtampi)

**Xalqaro to'lov kartasidagi chet el valyutasi va naqd chet el
valyutasini milliy valyutaga ayirboshlash
operatsiyalarini hisobga olish
REYESTRI**

20__ yil " _____ " _____
(kun) (oy)

F.I.O.	Xalqaro to'lov kartasidan yechib olingan chet el valyutasi		Naqd chet el valyutasi		Kurs	Milliy valyuta summasi	Operatsiya vaqti	Ma'lumotnom a raqami
	nomi	summasi	nomi	summasi				
1	2	3	4	5	6	7	8	9

Jami milliy valyuta miqdori

(raqam va so'z bilan yoziladi)

Jami chet el valyutasi miqdori

(raqam va so'z bilan yoziladi)

Valyuta ayirboshlash shoxobchasi
xodimlari

(imzolar va shtamlari)

Tijorat bankining emblemasi

_____ (tijorat bankining nomi)

_____ (valyuta ayirboshlash shoxobchasining shtampi)

-son ma'lumotnoma

20____ yil " _____ " _____
(kun) (oy)

_____ dan

(F.I.O)

_____ qabul qilindi.

(milliy valyutaning summasi raqam va so'z bilan yoziladi)

_____ beriladi

(chet el valyutasining summasi raqam va so'z bilan yoziladi)

Kassirning shtampi va imzosi _____

Nazoratchining shtampi va imzosi _____

Mijozning imzosi _____

**Nizomga
11-ILOVA**

09010-son reyestr

_____ (valyuta ayirboshlash shoxobchasining shtampi)

**Norezidentlarga chet el valyutasi sotilganligini hisobga olish
REYESTRI**

20___ yil " _____ " _____
(kun) (oy)

T/r	Sotilgan chet el valyutasi		Kurs	Milliy valyutaning miqdori	Ma'lumotnom a raqami	Amaliyot bajarilgan vaqt
	nomi	miqdori				

Jami milliy valyuta miqdori

_____ (raqam va so'z bilan yoziladi)

Jami chet el valyutasi miqdori

_____ (raqam va so'z bilan yoziladi)

Valyuta ayirboshlash shoxobchasi
xodimlari

_____ (imzolar va shtamlari)

**Nizomga
12-ILOVA**

09004-shakl

(valyuta ayirboshlash shoxobchasining
shtampi)

**Naqd chet el valyutasini inkassoga qabul qilish bo'yicha
_____ -son ma'lumotnoma**

20___ yil " _____ " _____
(kun) (oy)

Ushbu tasdiqlovchi
hujjat berildi

_____ (F.I.O.)

(shaxsini tasdiqlovchi hujjatning seriyasi va raqami)

Turar joyi
bo'yicha manzil

Xorijiy davlatning pul birligini inkassoga qabul qilish (chet el valyutasidagi to'lov hujjati):

1. _____
(chet el valyutasining to'liq nomi, nominali, seriyasi va raqami, emitent bankning nomi)
2. _____
3. _____
4. _____

Shoxobcha
xodimlari

(imzolar)

(xodimlarning shtamlari)

Mijoz

(imzo)

(F.I.O.)

**Nizomga
13-ILOVA**

09005-shakl

(valyuta ayirboshlash shoxobchasining
shtampi)

**Naqd chet el valyutasini ekspertizaga qabul qilish bo'yicha
_____ -son ma'lumotnoma**

20____ yil "____" "
(kun) (oy)

Ushbu tasdiqlovchi
hujjat berildi

(F.I.O.)

(shaxsini tasdiqlovchi hujjatning seriyasi va raqami)

Turar joyi
bo'yicha manzil

Xorijiy davlatning pul birligini ekspertizaga qabul qilish (chet el valyutasidagi to'lov hujjati):

1. _____
(chet el valyutasining to'liq nomi, nominali, seriyasi va raqami, emitent bankning nomi)
2. _____
3. _____
4. _____

Qayd etilgan pul birligi (to'lov hujjati) belgilangan tartibda ekspertizaga qabul qilinadi.

Shoxobcha
xodimlari

(imzolar)

(xodimlarning shtamlari)

Mijoz

(imzo)

(F.I.O.)

**Nizomga
14-ILOVA**

09011-son reyestr

(valyuta ayirboshlash shoxobchasining
shtampi)

Xorijiy davlatlarning shikastlangan yoki to'lovga yaroqsiz pul belgilarini o'sha davlatning to'lovga yaroqli pul belgilariga almashtirish va maydalash operatsiyalarini hisobga olish

REYESTRI

Chet el valyutasining nomi	Almashtirish, maydalash va yiriklash uchun qabul qilingan chet el valyutasining nominali, seriyasi va tartib raqami	Undirilgan vositachilik haqi	09012-shakl kvitansiyaning raqami	09013-shakl ma'lumotnomaning raqami
<i>1</i>	<i>2</i>	<i>3</i>	<i>4</i>	<i>5</i>

Nazoratchi: _____
(F.I.O.)

_____ (imzo)

Kassir: _____
(F.I.O.)

_____ (imzo)

Nizomga
15-ILOVA

09012-shakl

Tijorat banking emblemasi

(tijorat banking nomi)

-son ma'lumotnoma

20__ yil "_____"
(kun) (oy)

Ushbu tasdiqlovchi
hujjat berildi

(jismoniy shaxsning F.I.O.,

shaxsini tasdiqlovchi hujjatning seriyasi va raqami)

Turar joyi
bo'yicha manzili _____

Shikastlangan chet el valyutasini shikastlanmagan chet el valyutasiga almashtirish.

Qabul
qilindi

_____ (chet el valyutasining summasi raqam va so'z bilan yoziladi,

_____ nominali, seriyasi va tartib raqami, emitent bankning nomi)

Berildi

_____ (chet el valyutasining summasi raqam va so'z bilan yoziladi)

Vositachilik haqi
undirildi

_____ (raqam va so'z bilan yozilgan summa)

_____ (jismoniy shaxs imzosi)

_____ (shoxobcha xodimlarining imzosi va shtampi)

Nizomga
16-ILOVA

09013-shakl

Tijorat bankining emblemasi

_____ (valyuta ayirboshlash
shoxobchasining shtampi)

-son ma'lumotnoma

_____ (valyutaning nomi, summasi raqam va so'z bilan yoziladi)

Chet el valyutasining nomi	Mayda yoki yirik miqdorda ayirboshlash uchun qabul qilingan chet el valyutasining nominali, seriyasi va tartib raqami	Mayda yoki yirik miqdorda ayirboshlab berilgan chet el valyutasining nominali, seriyasi va raqami

miqdorida vositachilik
haqi olindi.

(summa raqam va so'z bilan yoziladi)

(jismoniy shaxs imzosi)

(nazoratchining shtampi va imzosi)

(kassirning shtampi va
imzosi)

**Nizomga
17-ILOVA**

09014-shakl

(valyuta ayirboshlash
shoxobchasining shtampi)

**Konversiya qilingan (almashtirilgan) naqd
chet el valyutasini hisobga olish
REYESTRI**

20____ yil " _____ " _____
(kun) (oy)

F.I.O.	Chet el valyutasi		Konversiya qilingan (almashtirilgan) kurs	09015-son ma'lumotnoma raqami
	qabul qilindi	berildi		

Nazoratchi:

(F.I.O.)

(imzo)

Kassir:

(F.I.O.)

(imzo)

Tijorat bankining emblemasi

(tijorat bankining nomi)

(valyuta ayirboshlash shoxobchasining
shtampi)

-son ma'lumotnoma

20____ yil " _____ " _____
(kun) (oy)

(qabul qilingan valyuta nomi, summasi raqam va so'z bilan yoziladi)

(konversiya qilingan (almashtirilgan) valyuta nomi, summasi raqam va so'z bilan yoziladi) vositachilik haqi
miqdori

(valyuta egasining imzosi)

(valyuta ayirboshlash shoxobchasi
xodimlarining imzosi)

Mazkur ma'lumotnoma chet el valyutasi boshqa chet el valyutasiga
almashtirilganligini tasdiqlash uchun berildi.

(valyuta ayirboshlash
shoxobchasining shtampi)

(valyuta ayirboshlash shoxobchasi
xodimlarining imzosi)

(hisobot tuzuvchining F.I.O., imzosi)

Hisobotni
tekshirdi:

(bosh buxgalter yoki bo'lim boshlig'ining F.I.O., imzosi)

20 yil " " " "